


IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH


2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 28 090,0 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 125,9 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 15 364,3 mlrd. so‘mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 9 317,1 ming so‘mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘p ulushi, ya’ni 58,9 foizi viloyatning 5 ta hududi, jumladan, Olmaliq shahri (32,9 %), Ohangaron tumani (7,5 %), Bekobod shahri (7,3 %), Quyichirchiq tumani (5,8 %) va Qibray tumani (5,4 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘m)**




**2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlari (%da)**



Ayrim hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan Olmaliq shahrida – 2,6 m., O'rta Chirchiq tumanida – 147,6 %., Chirchiq shahrida – 118,3 %., Bekobod shahrida – 117,3 % yuqori bo'ldi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori**
(ming so‘mda, %da)



■ Aholi jon boshiga ■ O‘sish sur’ati

Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko‘rsatkichlari Olmaliq shahrida – 64 565,0 ming so‘m, Nurafshon shahrida – 22 159,8 ming so‘m, Bekobod shahrida – 19 944,6 ming so‘m, Ohangaron tumanida – 19 295,1 ming so‘mni tashkil etdi.

Aksincha, past ko‘rsatkich Oqqo‘rg‘on tumanida – 2 116,8 ming so‘mni va Bo‘ka tumanida – 1 621,9 ming so‘mni tashkil etdi.


**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	28 090,0	125,9	100
shu jumladan:			
Markazlashgan investitsiyalar:	2 926,6	81,5	10,4
budjet mablag‘lari	1072,5	67,9	3,8
O‘zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi	130,9	102,0	0,5
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	593,0	86,5	2,1
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	1130,2	94,3	4,0
Markazlashmagan investitsiyalar	25 163,4	134,3	89,6
korxonalarining o‘z mablag‘lari	7143,3	88,9	25,4
tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag‘lari	1700,4	39,6	6,2
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	3353,7	105,8	11,9
aholi mablag‘lari	2735,3	123,4	9,7
kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	10230,7	419,7	36,4

2023- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich (jami investitsiyalarning 36,4 %i) kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobiga (10 230,7 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarি


Markazlashgan investitsiyalar



■ Budget mablag‘lari

- O‘zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta’mnoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi
- Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari
- Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari

Markazlashmagan investitsiyalar



■ Korxonalarning o‘z mablag‘lari

- Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag‘lari
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar
- Aholi mablag‘lari
- Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 3 353,7 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 %ni tashkil qildi. Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Ohangaron (1 330,6 mlrd. so‘m) va Angren shaharlariga (379,6 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Aksincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo‘yicha past natijalar Parkent tumani (3,2 mlrd. so‘m) va Piskent tumanlarida (2,3 mlrd. so‘m) kuzatildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya
va kafolatlanmagan kreditlar**

(mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	<i>shu jumladan:</i>		To‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiya	Reinvestitsiya	Kafolat- lanmagan kreditlar
		Investitsiya	Kredit			
Viloyat bo‘yicha	15 364,3	4 003,4	11 360,9	13 584,3	3 353,8	10 230,8
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	363,2	112,1	251,1	335,5	110,6	225,0
Olmaliq	6 695,8	29,4	6 666,4	6 695,8	29,4	6 666,4
Angren	765,0	483,9	281,1	660,6	379,6	281,1
Bekobod	1 072,2	159,6	912,6	1 072,2	159,7	912,6
Ohangaron	168,4	94,7	73,7	168,4	94,8	73,7
Chirchiq	637,8	523,6	114,2	148,3	148,3	
Yangiyo‘l	113,4	25,4	88,0	80,3	25,4	54,9
<i>tumanlar:</i>						
Oqqa‘rg‘on	150,2		150,2	150,2		150,2
Ohangaron	1 330,6	1 330,6		1 330,6	1 330,6	
Bekobod	101,1	101,1		101,1	101,1	
Bo‘stonliq	254,7	26,9	227,8	79,9	26,9	53,0
Bo‘ka	78,7	11,6	67,1	78,7	11,6	67,2
Quyi Chirchiq	998,5	142,5	856,0	965,1	142,5	822,6
Zangiota	598,0	292,7	305,3	325,7	292,7	33,0
Yuqori Chirchq	246,1	155,1	91,0	246,1	155,1	91,0
Qibray	556,4	227,6	328,8	139,0	58,9	80,1
Parkent	3,2	3,2		3,2	3,2	
Piskent	144,9	2,3	142,6	144,9	2,3	142,6
O‘rta Chirchiq	341,2	37,2	304,0	341,2	37,2	304,1
Chinoz	68,7	23,8	44,9	68,7	23,8	44,8
Yangiyo‘l	494,7	185,4	309,3	267,0	185,4	81,6
Toshkent	181,5	34,7	146,8	181,5	34,7	146,9

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
texnologik tarkibi**

	<i>Jami mlrd. so‘m</i>	<i>foizda</i>	<i>Davlat</i>	<i>foizda</i>	<i>Nodavlat</i>	<i>foizda</i>
Jami, mlrd. so‘m	28 090,0	100,0	2 440,9	8,7	25 649,1	91,3
<i>shu jumladan: umumiylajmga nisbatan %da</i>						
qurilish-montaj ishlari	14 891,7	53,1	1 840,6	6,6	13 051,1	46,5
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	10 689,8	38,0	481,2	1,7	10 208,6	36,3
boshqa harajatlar	2 508,5	8,9	119,1	0,4	2 389,4	8,5


2023- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining 53,1 %ini qurilish-montaj ishlari tashkil qilib, umumiylajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(umumiylajmga nisbatan % hisobida)**

	<i>yanvar-sentabr</i>			
	<i>2023- y.</i>	<i>Umumiylajmga nisbatan %da</i>	<i>2022- y.</i>	<i>Umumiylajmga nisbatan %da</i>
Jami:	28 090,0	100	20 227,3	100
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha</i>				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	2 048,0	7,3	2 118,1	10,5
tog‘-kon sanoati	8 889,7	31,6	3 300,2	16,3

	<i>yanvar-sentabr</i>			
	<i>2023-y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2022-y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
qayta ishslash sanoati	8 583,2	30,5	5 203,1	25,7
elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	525,9	1,9	1 414,3	7,0
suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilish	1 609,5	5,7	1 007,6	5,0
qurilish	978,9	3,5	595,8	2,9
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	173,8	0,6	952,7	4,7
tashish va saqlash	663,9	2,4	488,1	2,4
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	136,8	0,5	253,6	1,3
aloqa va axborotlashtirish	109,6	0,4	227,2	1,1
moliya va sug‘urta faoliyati	48,9	0,2	81,6	0,4
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlar	26,2	0,1	262,1	1,3
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	227,1	0,8	390,3	1,9
ma’muriy va qo‘srimcha xizmatlar	172,5	0,6	311,2	1,5
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta’milot	329,5	1,2	280,5	1,4
ta’lim	281,3	1,0	746,6	3,7
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	242,1	0,9	268,2	1,3
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	216,3	0,8	166,3	0,8
uy-joy qurilishi	2 609,1	9,2	2 122,6	10,5
boshqqa faoliyat turlari	217,7	0,8	37,2	0,3

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida – 8 583,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 30,5 %) tashkil etdi. Tog'kon sanoatida – 8 889,7 mlrd. so'm (31,6 %), uy-joy qurilishida – 2 609,1 mlrd. so'm (9,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 048,0 mlrd. so'm (7,3 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta'minotida – 329,5 mlrd. so'm (1,2 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda – 216,3 mlrd. so'm (0,8 %), tashish va saqlashda – 663,9 mlrd. so'm (2,4 %), suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilishda – 1 609,5 mlrd. so'm (5,7 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda – 227,1 mlrd. so'm (0,8 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 242,1 mlrd. so'm (0,9 %), ta'limda – 281,3 mlrd. so'm (1,0 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 136,8 mlrd. so'm (0,5 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.


Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi

2023- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 1390,4 ming kv.m. bo‘lgan 5 378 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 1122,8 ming kv.m. bo‘lgan 4 112 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.


Qurilish faoliyati. 2023- yil yanvar-sentabr oylarida 9 947,7 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,3 %ni tashkil etdi.

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 212,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 9 735,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 2,1 % va 97,9 % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
(2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %da)**



Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Parkent tumani (162,4 %), Qibray (129,6 %) va Yuqori Chirchiq (116,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Aksincha, eng past ko'rsatkich Yangiyo'l (97,6 %) va Angren (85,8 %) shaharlariга to'g'ri keldi.